



Rustamov Jahongir Ikrom o'g'li,
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti
 kichik ilmiy xodimi

JAMIYATDA O'SMIR ONALARNING IJTIMOIY MAVQEYI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda o'smir onalarning ijtimoiy mavqeyining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan, ularning ijtimoiy mavqeyiga ta'sir etuvchi omillar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: erta homiladorlik, o'smirlar, erta nikoh, gender tengligi, ta'lim, reproduktiv salomatlik, huquqiy madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности социального положения матерей-подростков в обществе, представлены факторы, влияющие на их социальный статус.

Ключевые слова: ранняя беременность, подростки, ранние браки, гендерное равенство, образование, репродуктивное здоровье, правовая культура.

Annotation. This article analyzes the features of the social status of teenage mothers in society, the factors that affect their social status.


Key words: early pregnancy, teenagers, early marriages, gender equality, education, reproductive health, legal culture.

Kirish. Mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tishi sharoitida ijtimoiy muammolar birinchi o'ringa ko'tarildi. Bu, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamlariga tegishlidir. Onalik va bolalik sohasida eng dolzarb muammolar: jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik, o'zini o'zi rivojlantirish imkonining mavjud emasligi, og'ir moliyaviy ahvol, erta onalik.

Umuman olganda, oila institutini o'zgartirish jarayonlarini, ayniqsa, yangi O'zbekistonda o'smir yoshdagi ona oilasining o'rnini anglash uchun, uning ijtimoiy mavqeyini va u bilan bog'liq o'ziga xos muammolarni o'rganish kerak.

Mamlakatimizda ushbu muammolarning dolzarbligini quyidagi raqamlardan ham bilib

olishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakat bo'yicha 1569 ta erta tug'uruq holati qayd etilgan (1-rasm).




1-rasm. 17 yosh va undan kichik yoshda ona bo'lganlar soni to'g'risida ma'lumot¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

Jadvaldan ko'rinadiki, 2018–2020-yillar mobaynida respublikada erta tug'uruqlar soni 1525 nafardan 959 nafarga yoki 37,1 foizga kamaygan. Ammo tahlillar 2022-yilda erta tug'uruq holatlari 2020-yilga nisbatan 63,6 foizga ortganini ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, erta tug'uruq holatlarining uchdan bir qismidan ortig'i 2 ta hudud: Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi (2-rasm).



2-rasm. 2022-yilda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida erta tug'uruq holatlari²

Asosiy qism. Yosh onalarning ijtimoiy mavqeyini o'rganishga kirishishdan oldin "mavqe" (status) tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. "Mavqe" atamasi sotsiologiyaga XX asrning 30-yillari o'rtalarida amerikalik antropolog R.Linton tomonidan kiritilgan. Hozirgi vaqtda sotsiologlar tomonidan birinchi navbatda shaxs yoki guruhning ijtimoiy mavqeyini va bu lavozimning martabasini, obro'sini bildirish uchun foydalaniladi³.

Afsuski, sotsiologiyada "oilaning ijtimoiy mavqeyi" tushunchasining aniq ta'rifi yo'q, o'smir onalarning ijtimoiy mavqeyi haqida gapirmasa ham bo'ladi. Rus olimi A.B.Lyubimovning fikricha, oilaning ijtimoiy mavqeyini aniq belgilash mumkin emas⁴. Uning fikricha, oilaning ijtimoiy mavqeyi ajralmas xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichdir. U o'zida oilaning jamiyatdagi mazmuni, o'rni, zaruriyati, qadr-qimmat, jozibadorligi va barqarorligini jamlaydi. Bizning fikrimizcha, bu eng to'g'ri ta'rifdir.

² O'sha manba.

³ Российская социологическая энциклопедия. — Москва, 1998. — С. 539.

⁴ Любимова А.Б. Статус семи: проблемы эволюции: Соц.-филос. аспект: Монография. — Нижний Новгород, 1998. — С. 15.

O'smir yoshdagi ona oilasi oila institutining inqirozi bilan bog'liq umumiy, yosh, psixologik va moddiy omillarga bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarga duch keladi.

Yosh ona duch keladigan muammolar uning oilasining, bolasining ijtimoiy mavqeyida ham aks etadi (3-rasm).



3-rasm. Yosh ona duch keladigan muammolar

O'smir yoshdagi onalik ko'plab salbiy oqibatlarga to'la bo'lib, bu, birinchidan, ularning oilalari beqarorligida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, yosh onalar hali o'rta ma'lumotni tugatmagani, maktabga borishni davom ettirayotgani yoki maktabni tark etayotganidir. Uchinchidan, ikkinchi sabab natijasida ular yetarli malaka orttirmagani, ya'ni ishsizlik xavfi yuqori va ular doimiy daromadga ega emasligidir.

Yosh ona farzandining ijtimoiy mavqeyi uning ota-onasiga bog'liq. Hayotning turli bosqichlarida inson u yoki bu ijtimoiy mavqeni egallash uchun tengsiz imkoniyatlarga ega. Kichkina bola butunlay ota-onasiga bog'liq bo'lishi tabiiy, chunki uning qobiliyatlari hali hech kimga ma'lum emas.

Biz bir tomondan oilaning institutlar iyerarxiyasidagi o'rnini belgilaymiz, uning jamiyatdagi mavqeyini aniqlaymiz. Boshqa tomondan esa oilaning o'zi jamiyatning tabaqalanish tizimida ijtimoiy tegishlilik manbaya hisoblanadi. Yangi oila a'zosini qabul qilib, oila uni ma'lum bir qatlamga tayinlaydi, ularning ijtimoiy mavqeyini belgilaydi va bu kattalar uchun ham, bolalar uchun ham amal qiladi. Bu shuni anglatadiki, agar yosh ona o'z farzandi otasining oilasiga kirs, u holda erkak oilasining ijtimoiy mavqeyi unga va bolaga o'ta boshlaydi. Agar yosh ona yolg'iz, ersiz qolsa, uning bolasi o'zi bilan bir xil qatlamga tegishli bo'lib qoladi.

Shunday qilib, yosh ona va uning bolasining jamiyatdagi mavqeyi oilaning ijtimoiy institutlar orasidagi o'rni bilan belgilanadi va bevosita o'smir onaning oilaviy ahvoliga bog'liq bo'lib qoladi. Binobarin, yosh onalik ko'pincha gender tengsizligi

holatiga olib keladi, bunda yosh ayolning ahvoli yomonlashadi, erkakning maqomi ko'pincha o'zgarishsiz qoladi.

Olimlar ijtimoiy maqomning turli ko'rsatkichlarini aniqlaydilar. Biroq agar asosiy pozitsiyalarni o'rgansak, ba'zi umumiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Aksariyat olimlar ta'lim darajasini, bandlik xususiyatini, daromadning hajmi va xarakterini, uy-joy mavjudligini, istiqbollari va bo'sh vaqtini hisobga oladi.

Keling, sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning har biriga to'xtalib o'tamiz va uning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'lim darajasi. Erta tug'ruq va turmush qurish qizlarning asosiy huquqlaridan biri – kelajak hayotini to'liq qurish uchun zarur bo'lgan ta'lim olish huquqidan mahrum qiladi. Ko'pgina yosh onalar hatto o'rta ma'lumot olishga ham vaqtlari yo'q, aksincha, oilaviy hayot va oilaviy muammolarga shog'inishga majbur bo'lishadi. Bola haqidagi tashvishlar o'smir qizning hayotidan diplom olish masalasini siqib chiqaradi.

Bandlik xususiyati. Yosh onalarning yosh xususiyatlarini va ularning ko'pchiligidan ma'lumotga ega emasligini hisobga olsak, ular yuqori lavozimlarga umid bog'lay olmasligi aniq. Yosh ona har doim ikkilanish – o'qishni davom ettirish yoki ishga borishga duch keladi. U homiladorlikdan oldingi kabi bir xil ta'lim muassasasida o'qishi dargumon, chunki u bolaga g'amxo'rlik qilishi kerak.

Agar yosh ona ishga borishga qaror qilsa, unda mos ish joyini topish muammosi paydo bo'ladi. Kerakli malakaga ega bo'lmagan bunday ishchiga talab juda kam bo'ladi. Shuning uchun aksariyat hollarda pastga qarab ijtimoiy harakatchanlik kuzatiladi.

Daromad. Yosh onalarning ish bilan ta'minlanish xususiyatiga oid oldingi bandga asoslanib, aholining ushbu guruhining daromadlari juda kam, degan xulosaga kelish oson. Bola tug'ilgandan so'ng daromad muammosi keskin dolzarblashadi, mavjud mablag' sarfi ko'proq bolaga qaratila boshlaydi. Butun oila otaning daromadi bilan yashashga majbur, ammo bu yerda o'smir ona haqida gap ketganda, bir qator "agar"lar paydo bo'ladi:

– agar bolaning otasi yosh onaga uylangan bo'lsa;

– agar otaning yoshi mehnat qilishga imkon bersa;

– agar uning ma'lumoti va malakasi yaxshi ish haqi olish uchun yetarli bo'lsa.

Jinsiy faoliyatning erda boshlanishi ko'pincha hal qilib bo'lmaydigan ijtimoiy va axloqiy muammolarga olib keladi. Erta nikohlarning ikkinchi tomoni tez-tez ayrilishidir. Natijada, ko'pincha hali voyaga yetmagan ona jamiyatning munosib a'zosi sifatida tarbiyalanishi, uning moddiy ehtiyojlari qondirilishi hamda ta'lim olishini ta'minlashi zarur bo'lgan farzandi bilan yolg'iz qoladi.

Bunday sharoitda yosh onalarning ijtimoiy mavqeyi nihoyatda past va albatta, moliyaviy masalada juda qiynalib qoladi. Binobarin, yosh ona doimo qarindoshlariga moddiy jihatdan qaram bo'ladi. Bolani tarbiyalash masalasida yosh ona uchun buvining ishtiroki juda zarur, chunki u o'zining yoshi tufayli hali ham nazorat va vasiylikka muhtojdir.

Shunday qilib, yosh onaning va uning bolasining moddiy farovonligi bevosita uning yaqin qarindoshlariga bog'liq bo'ladi.

Uy-joy masalasi. Mamlakatimizdagi aksariyat yosh oilalar shaxsiy uy-joyga muhtoj. Yosh onalar ko'pincha ota-onalari bilan yashaydilar va agar ular farzandining otasi bilan oila qurgan taqdirda ham, ular kattaroq yoshdagi ayollarga qaraganda alohida yashash joyini izlash ehtimoli kamroq bo'ladi. Buning sababi aniq – o'smir ona hali mustaqil uy xo'jaligiga, bolani tarbiyalashga tayyor emas, chunki uning o'zi hali ham bola.

Afsuski, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan barcha yosh onalar qarindoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanib, yashash joyiga ega bo'lmaydilar.

Istiqbollar. Ko'pincha ota-onalarning homilador yoki yaqinda ko'zi yorigan qiziga yordam berishdan bosh tortishi, uni o'zlaridan uzoqlashtirishga, oilani tark etishga undashi o'ta salbiy oqibatlariga olib keladi. Bu kabi xo'rlik va sargardonlik natijasida ularning fohishalik yo'liga kirib ketish ehtimoli ham mavjud. Shu sababli ham ko'plab olimlar erda onalik nafaqat akusherlik nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy nuqtayi nazardan ham noqulay ekanligiga qo'shiladilar.

Tashqi aloqalar. Deyarli barcha yosh onalar homiladorlik davrida va bola tug'ilgandan keyin ijtimoiy muloqot yetishmasligini boshdan kechirishadi, ularning muloqot muhiti qisqaradi.

Hayotlarining shunday hal qiluvchi davrida ular o'zlarini tengdoshlarining tanish muhitidan ajratilgan holda sezadilar. Ayniqsa, bola tug'ilgandan so'ng, o'smir qizning o'ziga va o'yin-kulgiga vaqti yo'q, hayoti chaqaloqning ehtiyojlariga bo'ysunadi.

Xulosa. Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillarga asoslanib, yosh onalarning rivojlanish istiqbollari juda cheklanganligi aniq. Obyektiv nuqtayi nazardan, qarindosh-urug'lar, do'stlar yordamisiz yosh onalarning farovon kelajakka bo'lgan umidlarini ro'yobga chiqarish qiyin bo'ladi.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar zamonaviy jamiyatdagi yosh onalarning ijtimoiy mavqeyiga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar juda noqulay fonni – homiladorlik davrida va undan keyin yosh onaning “rivojlanishning ijtimoiy holati”ni tashkil qiladi,

bu esa qizning hali shakllanmagan shaxsini beqarorlashtiradigan bir qator bezovta qiluvchi tajribalarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smir onalar va ularning oilalarining zamonaviy gender jamiyatidagi ijtimoiy mavqeyi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

– mavqening belgilangan komponenti olinganidan ustun turadi, chunki yosh onaning ijtimoiy mavqeyi endigina shakllanmoqda;

– istiqbolli ijtimoiy harakatchanlik, asosan, odatdagi yosh oilalarda bo'lgani kabi ijobiy osish yo'nalishga ega bo'lmaydi;

– yosh ona oila a'zolarining iqtisodiy va kasbiy maqomi to'liq shakllanmagan;

– yosh onalarning ijtimoiy mavqeyiga davlat ijtimoiy-demografik siyosati katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Фукароларнинг репродуктив саломатлигини сақлаш тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2020 йил 13 июлдаги “Эрта турмуш ва эрта туғурук ҳолатлари ҳамда оилавий ажримлар билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҚҚ-105-IV-сонли қарори.
4. Award-Winning Programme. <https://www.unfpa.org/news/award-winning-programme-gives-ethiopian-girls-safer-transition-adulthood>.
5. UNICEF Global Databases 2020, based on DHS, MICS and other National Surveys, 2013-20196. Government of Turkey, Turkey's 2nd VNR 2019. https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/23862Turkey_VNR_110719.pdf.
6. Абдураманов Х. Ўзбекистон Республикасида демографик ривожланишнинг кўп омилли таҳлили ва истикбол кўрсаткичлари // Иқтисодиёт ва таълим. – 2020. – Т. 1. – №. 2.
7. Абдураманов Х. (2020). Многофакторный анализ и перспективы демографического развития в Республике Узбекистан. Экономика и Образование, – № 1 (2).
8. Абдурахманова Г.Қ., Абдураманов Х.Х. Ижтимоий соҳалар ва инсон тараққиёти // – Тошкент: Фан ва технология, 2018.
9. Абдурахмонов Х.Х. Демография // Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ношир, 2011. – С. 200.
10. Abduramanov H.H., Konturayev B.B. Ways to eliminate problems with early marriage and premature birth.
11. Abduramanov H.H., Ibragimov L.Z. Regional characteristics of demographic development in the republic of uzbekistan // SEA: Practical Application of Science. – 2015. – Т. 3. – №. 1.
12. Российская социологическая энциклопедия. – Москва, 1998.
13. Любимова А.Б. Статус семи: проблемы эволюции: Соц.-филос. аспект: Монография. – Нижний Новгород, 1998.